JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIKKA MOYILLIGI BO‘LGAN MUAMMOLI OILALARDAGI PSIXOLOGIK HOLATLAR

Mahbuba Shavkatovna Bo‘riyeva
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
mahbubaburieva6@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oilalarni mustahkamlashda mahallalardagi jinoyatchilik, huquqbuzarlikka moyilligi bo‘lgan muammoli oilalardagi psixologik holatlarini namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganish va oqibatlari yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: jinoyat, huquqbuzarlik, munosabatlar, oila, nizo, ziddiyat, muloqot, qadriyat, tadqiqot, so‘rovnoma.

ABSTRACT

This article examines the forms of manifestation of psychological states in problematic families with a tendency to crime and delinquency in neighborhoods and highlights the consequences for strengthening families.

Keywords: crime, offense, relationship, family, conflict, conflict, communication, value, research, questionnaire.

KIRISH

Dunyodagi barcha davlatlarning milliy qonunchiligida shaxs hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatini ishonchli himoya qilishga alohida ahamiyat qaratiladi. Afsuski, so‘nggi paytlarda butun dunyoda oilaviy munosabatlar doirasida ayollar, bolalar va qariyalarga nisbatan jabr-zulum va zo‘ravonlik ko‘rsatish eng ko‘p tarqalgan ijtimoiy hodisalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu muammo Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollar muammolariga bag‘ishlangan, 1995 yil sentyabr oyida Pekinda bo‘lib o‘tgan to‘rtinchi anjumaning siyosiy dasturida uydagi zo‘ravonlik ko‘pgina davlatlarda «epidemiya» deb tan olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Oilalarda nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda» degan fikrlari ushbu masalagi qanchalik jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda hududlarda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon

berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jinoyatlarning sodir etilishi sabablari, shaxsda g‘ayriijtimoiy xulq-atvor va xususiyatlarning shakllanishiga hamda turli ko‘rinishdagi huquqbuzarliklar sodir etilishiga, qonunga yoki qonun ijrosiga putur yetkazadigan, unga rioya qilishga to‘sqinlik qiladigan omillar oiladagi muhit ta’sirida yuzaga keladi. Zero, har qanday huquqbuzarlikning kelib chiqishida oiladagi nosog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, har qanday huquqbuzarlik va salbiy illatlarning tomiri oilada shakllanadi. Oila shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ma’naviy va axloqiy tarbiyalash, shaxslar bilan bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlar jarayonida o‘zini tutish kabi insoniy xususiyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oiladagi nizoli vaziyatlar oqibatida qasddan odam o‘ldirish, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish, qasddan badanga o‘rtacha shikast yetkazish, qasddan badanga yengil shikast yetkazish kabi shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar sodir etilmoqda. Bunday oilalarda bolalar va o‘smirlar shaxsining shakllanishi, rivojlanishi juda ham noqulay sharoitlarda amalga oshganligi, kelgusida bunday oilalarda voyaga yetgan shaxslar tomonidan oila-turmush munosabatlari doirasidagi og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlarning sodir etilishiga zamin yaratmoqda.

NATIJALAR


Tadqiqot jami 80 nafar respondent o‘rtasida o‘tkazildi. So‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning jinsiga ko‘ra tahlil qilinganda jami qatnashuvchilarning 28 foizi (22) erkaklar, qolgan 72 foizi (58) ayollarga to‘g‘ri kelmoqda. Respondentlar sonini oilaviy holati bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, eng yuqoru ulushga oilalilarga to‘g‘ri kelib, jami ishtrokchilar ulushining 53,5 foizini tashkil qildi. Undan keyingi yuqori ulush oila qurmaganlar bo‘lib, 34,5 foizga ega bo‘ldi. Ajrashgan va bevalarning ulushi esa eng kichik bo‘lib, ajrashganlarning ulushi 6,2 foizni, bevalarning ulushi esa 5,8 foizga to‘g‘ri kelmoqda.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, jamiyatda an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar natijasida oila-turmush munosabatlari doirasida ayrim jinoyatlar turlarining sodir etilishi kamayganligi kuzatilgan. Jumladan, 2024 yilning yanvar-sentyabr oylarida respublika bo‘yicha ro‘yxatga olingan jinoyatlarning umumiy soni 52 084 tani tashkil etgan. Bu 2023 yilning mos davriga nisbatan 29,4 % ga, 2021 yilning mos davriga esa 29,1 % kamayishni ko‘rsatadi. Ushbu davrda jinoyatlar soni 10 ming

kishiga nisbatan 13,9 ta, 2021 yilning shu davrida 21,1 ta, 2022 yilda 20,0 ta va 2023 yilda 20,2 ta bo‘lgan.

Raqamlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, oilalarda tinchlik va totuvlikni yaxshilash bo‘yicha profilaktik tadbirlar talab darajasida tashkil etilmaganligi sababli, aksariyat jinoyat turlarida oila-turmush munosabatlari doirasida jinoyatlarning ulushi hamon barqaror saqlanmoqda.

Shuningdek, o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovga ko‘ra ***“Bugungi kunda oila-turmush munosabatlari doirasida asosan qaysi turdagi jinoyatlar sodir etilmoqda?”*** degan savolga 32.1 foiz respondent “*qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish*” deb javob bergan bo‘lsa, 26.8 foiz “*o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish*”, 1.8 foiz “*qasddan odam o‘ldirish*, 3.6 foiz “*zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish*”, 8.9 foiz “*bezorilik*”, 3.5 foiz “*ayolni erga tegishga majburlash yoki to‘sqinlik qilish*”, 5.3 foiz “*tuhmat*”, 3.6 foiz “*nomusga tegish*”, 1.7 foiz “*qiynash*”, 7.1 foiz “*sun’iy ravishda homila (abort) tushurishga majburlash*” va 5.3 foiz respondent boshqa turdagi jinoyatlar deb javob bergan.




1-rasm.Respondentlar so‘roviga ko‘ra bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyat turlari

Bundan ko‘rinadiki, oila-turmush munosabatlarida shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarni sabablarini aniqlash va o‘rganishda, shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xususan, oila-turmush doirasidagi kelishmovchiliklar oqibatida 2021 yilga nisbatan 2022 yilda 11,2%ga, 2022 yilga nisbatan 2023 yilda 2,8%ga, **kamayishiga erishilgan** bo‘lsa, 2023 yilga nisbatan 2024 yilda 7%ga oshishi kuzatilgan. Mazkur jinoyatlarning stabilligi hududlar kesimida o‘rganilganida, 2021 yilga nisbatan 2022 yilda Surxondaryo viloyatida 40%ga, Namangan viloyatida 37,5%ga, Farg‘ona viloyatida 26,7%ga, Andijon viloyatida 16,7%ga, Toshkent shahrida 11,1%ga, 2022 yilga nisbatan 2023

yilda Jizzax viloyatida 133,3%ga, Surxondaryo viloyatida 114,3%ga, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 33,3%ga, Andijon viloyatida 21,4%ga, 2023 yilga nisbatan 2024 yilda Xorazm viloyatida 125%ga, Qashqadaryo viloyatida 120%ga, Namangan viloyatida 80%ga, Buxoro viloyatida 66,7%ga, Samarqand viloyatida 50%ga, Toshkent shahrida 20%ga **ko‘payish xolatlari** aniqlangan [3].



2-rasm.Respondentlar so‘roviga ko‘ra bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablar

Mazkur qotillik jinoyatlarning 60.7 foizi murosaga kelisha olmaslik, 14.3 foizi rashk, 3.6 foizi mol-mulk talashish, 3.6 foizi o‘ch olish hamda 17.8 foizi boshqa sabablar oqibatida yuzaga kelgan.

Shuningdek, oila-turmush doirasida qasddan odam o‘ldirish jinoyatlarining **sodir etilish sabablari** o‘rganilganda, birgina 2024 yilning o‘zida sodir etilgan ushbu sohadagi jinoyatlar *o‘ch olish maqsadida* 5,2%, *rashk tufayli* 16,4%, *mol-mulk talashish oqibatida* 4,6%, *murosasi kelishmaganligi oqibatida* 61,8% hamda *boshqa sabablar* oqibatida 11,8% ni tashkil qiladi. Sabablar kesimida tahlil qilinganda, o‘ch olish maqsadida sodir etilgan qotillik jinoyatlari 2021 yilga nisbatan 2022 yilda 28,6% ga **kamaygan bo‘lsa,** 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 25% ga, 2024 yilda esa 2023 yilga nisbatan 60% ga oshib ketishiga yo‘l qo‘yilgan. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent shahrida 100%ga, Toshkent, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida 100%ga yuqorilab, Respublika ko‘rsatkichidan yuqori natijani ko‘rsatgan.

Xuddi shunday, **rashk tufayli** sodir etilgan qotillik jinoyatlari tahlil qilinganda, ushbu turdagi jinoyatlar 2021 yilga nisbatan 2022 yilda 23,5% ga, 2022 yilga nisbatan 2023 yilda 52,4% ga **ko‘paygan bo‘lsa,** 2023 yilga nisbatan 2024 yilda 16,4% ga **kamayishiga erishilgan.** Biroq Toshkent shahar va Navoiy viloyatlarida bu yo‘nalishdagi jinoyatchilik 100%ga, Namangan viloyatida 200%ga, Qashqadaryo viloyatida 300%ga oshib ketib, yuqoriligicha qolmoqda[3].

Ushbu oila-turmush doirasidagi **jinoyat va huquqbuzarliklarning** sabablari asosan kimlar o‘rtasida sodir etilayotganligi bo‘yicha statistik tahlillar isboti sifatida

o‘tkazilgan so‘rov natijalarida ham o‘z ifodasini topganligini kuzatishimiz mumkin.

So‘rovda qatnashgan respondentlarga ***“Bugungi kunda oila-turmush doirasidagi jinoyatlarni kim-kimga nisbatan sodir etmoqda?”*** degan savolga 57.1 foiz respondent “*er xotiniga nisbatan*”, 16.1 foiz “*qarindosh-urug‘lar bir-biriga nisbatan*”, 12.5 foiz “*qaynona keliniga nisbatan*”, 1 foiz “*farzandi o‘z ota-onasiga nisbatan*”, 5.3 foiz “*xotini eriga nisbatan*”, 1.7 foiz “*aka-uka bir-biriga nisbatan*”, 1.6 foiz “*ota-ona o‘z farzandiga nisbatan*”, 3.5 foiz “*qo‘ni-qo‘shnilar bir-biriga nisbatan*”, 1.8 foiz “*kelin qaynonasiga nisbatan*” va 4.8 foizi boshqa oila a’zolar o‘rtasida degan javobni bergan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, oila-turmush munosabatlari doirasida jinoyat yoki huquqbuzarliklar kelib chiqishiga bir qator omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.


Xususan, oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar, er-xotin o‘rtasida mehr-oqibatning yo‘qligi, doimiy ravishda haqoratli so‘zlar ishlatish, kamsitish, tahqirlash, jabr-zulm qilish, erkakning spirtli ichimlikka ruju qo‘yganligi, rashk, xiyonat, ishsizlik, farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik, er-xotin munosabatlariga qaynona-qaynota, aka-uka, ayniqsa opa-singil va boshqa qarindoshlarning noo‘rin aralashuvi, oiladagi nosog‘lom muhit va boshqa qator sabablarni keltirishimiz mumkin.

Bu borada savol bilan ***“oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarning kelib chiqishiga qaysi omillar turtki bo‘lishi”*** yuzasidan respondentlardan so‘ralganida 25 foiz respondent “*moddiy yetishmovchilik va moddiy qiyinchiliklar*”, 26.7 foiz “*oiladagi nosog‘lom muhit*”, 8.9 foiz “*er-xotin, aka-uka, opa-singil, qaynona-qaynota o‘rtasidagi nizoli vaziyat*”, 7.1 foiz “*er yoki xotinning oiladagi burch va vazifalarni bajarmaslik*”, 1.8 foiz “*mol-mulk va meros masalasi bo‘yicha qarindoshlar o‘rtasidagi kelishmovchilik*”, 8.9 foiz “*spirtli ichimliklarni me’yoridan ortiq iste’mol qilish*”, 3.6 foiz “*oilada ayolning erkakdan o‘zini ustunroq qo‘yishi yoki o‘z so‘zini o‘tkazishga bo‘lgan intilish*”, 7.1. foiz “*yosh oilalarning ishiga kattalarning noo‘rin aralashuvi*”, 3.7 foiz “*erkak yoki ayolning bir-biriga nisbatan xiyonatkorligi*” va 7.1 foiz respondentlar boshqa sabablar bo‘yicha fikr bildirishgan.

Murosasi kelishmaganligi oqibatida sodir etilgan qotillik jinoyatlari tahlil qilinganda, 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 20,4%ga, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 20%ga **kamaygan bo‘lsa,** 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 28,8%ga oshib ketgan. Jumladan, Xorazm viloyatida 400%ga, Andijon viloyatida 120%ga, Buxoro viloyatida 100%ga, Samarqand viloyatida 80%ga, Toshkent viloyatida 62,5%ga, Toshkent shaharda 50%ga, Namangan viloyatida 37,5%ga, Farg‘ona viloyatida 16,7%ga o‘sgan. Mazkur

jinoyatning kelib chiqishiga va ayolning jabrlanishiga oiladagi nizoli holatlarning mavjudligi, shaxsning agressivligi va tajovuzkorligi sabab bo‘lgan. Bu esa oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbuzarlik yoki zo‘ravonliklarni kelib chiqishiga turtki bo‘ldi [3].

Bu borada o‘tkazilgan so‘rov natijalarida ham o‘z tasdig‘ini topdi, respondentlarga “***Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning kelib chiqishiga shaxsning hulq-atvoridagi qaysi xususiyatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda?”*** deb savol berilganida, ularning 14.3 foizi “*asabiylashish*”, 23.2 foizi “*shaxsning ruhiyatidagi buzilishlar*”, 16.1 foizi “*stress*”, 23.2 foizi “*muammolar*”, 3.5 foizi “*siqilish*”, 8.9 foiz “*xotirjamlikning yo‘qligi*”, 7.1 foizi “*affekt*”, 3.6 foizi “*kuchli hayajonlanish*” va 1.2 foizi boshqa sabablar deb javob berishgan.



3-rasm. Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatuvchi shaxsning hulq-atvoridagi xususiyatlari

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlilidan kelib chiqqan holda oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga sabab va omil sifatida quyidagi umumiy hulosalar qilishimiz mumkin:

a) oilalarda azaliy milliy urf-odat va qadriyatlarning e’tirof etilmasligi natijasida oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat yoki hamjihatlik kabi insoniy xislatlarning yo‘qolib borayotganligi;

b) oilada nizo keltirib chiqargan shaxslarning ayrimlarida ma’naviyat va axloqiy xislatlar yetarli darajada shakllanmaganligi;

v) oiladagi ijtimoiy muhitni buzilishida er-xotin va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning keskinlashuvi, erkaklarning oila boshlig‘i sifatida ma’suliyatini to‘liq anglamasligi;

g) oilaviy urush-janjallarda jabrlanuvchining salbiy xulq-atvori;

d) oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklarga oila a’zolarining ko‘nikishda “sabr”, “shukur” va “chidamlilik” tushunchalarni tan olmasligi;

ye) oiladagi nizolarga qarindosh-urug‘ va do‘st-birodarlarning noo‘rin aralashuvi;

yo) oila a’zolari va qarindoshlar o‘rtasida mol-mulk hamda meros talashish;

z) oilaviy hayotda er-xotinning mehr, muhabbat, sadoqat va nomus kabi tushunchalarning yetarli darajada bilmaganligi va tushunmaganligi rashk, hiyonat va zinoni kabi holatlarni sodir etilishiga olib kelishi;


i) oilada er yoki xotinning spirtli ichimlikka ruju qo‘yishi;

y) respublikadagi aholining asosiy qismi islom diniga e’tiqod qiluvchi oilalar bo‘lganligi bois, er yoki xotinning bir-biriga nisbatan shariat nuqtai nazardan talablarni haddan ortiq qo‘yishi kabi omillar hisoblanadi.

Hozirgi kunda oilada jinoyat yoki huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishda, avvalombor oilada tazyiq va zo‘ravonlikka uchrayotgan sub’ektni (shaxs) aniqlash zarur.

Bu borada mavjud statistik tahlillar, ayrim ekspert va mutaxassislarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, oilada tazyiq va zo‘ravonlik qurboni ko‘pchilik hollarda ayol kishi yoki yosh bolalar bo‘ladi, ammo erkaklar hamda qariyalar orasida ham jabrlanuvchilar yo‘q emas.

Mazkur fikrlarni tasdig‘i sifatida, o‘tkazilgan tadqiqot davomida ***“Oila-turmush doirasidagi jinoyatlardan asosan kimlar jabrlanmoqda?”*** degan savolga 80.3 foiz respondent *“voyaga yetmaganlar”*, 14.3 foizi *“ayollar”*, 1.8 foizi *“erkaklar”* , 1.7 foizi *“qariyalar”*, 1 foizi *“qarindosh-urug‘lar”*, 1.7 foizi *“qo‘ni-qo‘shnilar”*, 1 foizi *“nogironlar”* deb javob bergan.



2.4-rasm. Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarda jabr ko‘rayotgan toifalar

Mazkur raqamlar hamda dunyo miqyosidagi statistika va umumiy tendensiyalarga nazar tashlasak ham, oilaviy zo‘ravonlikdan asosan ayollar va bolalar jabr ko‘rayotgani ma’lum bo‘lmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, ayni paytda oila-turmush doirasidagi jinoyatlarni barvaqt oldini olish va oilada zo‘ravonlik holatlarni bartaraf etishda kichik bir jamiyat

hisoblangan – oilaning sub'ektlari voyaga yetmaganlar va xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularning huquq hamda erkinliklarini ta'minlash profilaktik tadbirlarning asosiy yo'nalishi sifatida belgilab olish tavsiya etiladi.

Zero xotin-qizlarga nisbatan ayniqsa turmush o'rtog'i va voyaga yetmaganlar nisbatan ota-onasi tomonidan zo'ravonlikning qayd etilishi sog'liqni saqlash va inson huquqlari buzilishi yo'lidagi jiddiy muammodir.

Bu borada Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi har uchinchi ayolga hayoti davomida o'z umr yo'ldoshi tomonidan jismoniy tazyiq o'tkaziladi. Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zo'ravonlik holatlariga duch kelganlari haqida ma'lum qiladi. Ayollar o'limining 38 foizi ularning turmush o'rtog'i tomonidan amalga oshiriladi va zo'ravonlikka duch kelgan ayollarning 42 foizigina muammo haqida ochiq so'zlaydi.

Bundan tashqari, oila-turmush doirasida **qasddan odam o'ldirish va unga suiqasd qilish** jinoyatlarining **kimlar tomonidan sodir etilishi** tahlil qilinganida, o'rganish natijalari ***eri tomonidan xotiniga nisbatan*** sodir etilgan holatlari 2021 yilga nisbatan 2022 yilda 19 taga yoki 11,3%ga **kamaygan bir davrda,** Namangan viloyatida 200%ga, Navoiy viloyatida 100%ga, Andijon viloyatida 33,3%ga va Toshkent shaharda 16,7%ga **ortib ketgan.** Shuningdek, qotillikning eri tomonidan xotiniga sodir etilishi 2022 yilga nisbatan 2023 yilda 9,7%ga, 2023 yilga nisbatan 2024 yilda 11%ga **ko'paygan.** Ushbu ko'payish indeksi 2022 yilga nisbatan 2023 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Buxoro (100%), Surxondaryo (166,7%), Andijon (25%) hamda Farg'ona (12,5%) viloyatlari hissasiga, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan Toshkent shahar (250%), Xorazm (400%), Samarqand (120%), Namangan (60%) Andijon (27,3%), Qashqadaryo (25%), Buxoro (25%) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda [3].

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, bizning mamlakatimizda oila-muqaddas dargoh va nikoh esa buzilmas rishta sifatida qaraladi. Shu jihatdan olganda, odamlar bunday muammolarni uydan tashqariga olib chiqmaslikka harakat qilishadi. Aksariyat holatlarda zo'ravonlik qurboni sharmandlik va turli gap-so'zlardan qo'rqib, jim yurishga majbur bo'ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab bo'ladi. Kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qo'rqsa, boshqalari farzandlari va o'z hayoti uchun xavfsiraydi.

O'tkazilgan so'rov davomida *"**Oiladagi bolalar va o'smirlarning ko'pincha jinoyat sodir etining sabablari nimada?**"* degan savolga 8.9 foiz respondent *"ota-onalarning antisosial hulq-atvori"* deb javob bergan bo'lsa, 66 foiz *"ota-ona tomonidan beriladigan e'tibor va mehrning yetishmasligi"*, 1.8 foiz *"giperapeka"*, 16 foiz *"bolaning ehtiyojlarini haddan tashqari qondirish"*, 7.1 foiz *"ota-onaning haddan tashqari*

talabchanligi va avtoritarligi" sabablarini keltirib o‘tishgan. Bundan ko‘rinib turubdiki qonunbuzarlik sodir etayotgan voyaga yetmaganlar asosan ota-onasini ichkilikbozlikka berilgani, oilada muntazam ravishda janjal va nizolar kelib chiqadigan nosog‘lom oilada yashashi turtki bo‘lmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat hollarda shaxslarning nizoli yoki viktim xulq-atvori ularning oila-turmush sohasidagi jinoyatlardan jabrlanishlariga sabab bo‘lmoqda yoki muayyan darajada shart-sharoit yaratmoqda.

Oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlar tahliliga ko‘ra, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro mehr-muhabbatning kamligi, bir-birini qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi, ota-onaning farzand tarbiyasida mas’uliyatsizligi, qo‘pollik, g‘ayriijtimoiy xulq-atvor kabi omillar oilada kriminogen vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bugungi kunda oila-turmush doirasida asosan qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish holatlari ko‘proq uchrayotgani kuzatildi. Shu bilan bir qatorda, o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish turidagi jinoyatlari ham sodir etilmoqda. Masalan, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish (8.9 %), 3.5 foiz ayolni erga tegishga majburlash yoki to‘sqinlik qilish (3.5 %), tuhmat (5.3 %), nomusga tegish (3.6 %), qiynash (1.9 %). Mazkur jinoyatning kelib chiqishiga va ayolning jabrlanishiga oiladagi nizoli holatlarning mavjudligi, shaxsning agressivligi va tajovuzkorligi sabab bo‘lgan.

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar oila-turmush doirasida kelib chiqadigan junoyat va huquqbuzarlikka asosan moddiy yetishmovchilik va moddiy qiyinchiliklar (25%) hamda oiladagi nosog‘lom muhit (26,7%) kabi omillarini ko‘rsatishgan. Shuningdek, er-xotin, aka-uka, opa-singil, qaynona-qaynota o‘rtasidagi nizoli vaziyat (8,9%), er yoki xotinning oiladagi burch va vazifalarni bajarmaslik (7,1 %), foiz mol-mulk va meros masalasi bo‘yicha qarindoshlar o‘rtasidagi kelishmovchilik (1,8 %), spirtli ichimliklarni me’yoridan ortiq iste’mol qilish, oilada ayolning erkakdan o‘zini ustunroq qo‘yishi yoki o‘z so‘zini o‘tkazishga bo‘lgan intilish (8,9%) bilan bog‘liq holda ham kelib chiqar ekan. Shu sabab ham oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar, er-xotin o‘rtasida mehr-oqibatning yo‘qligi, doimiy ravishda haqoratli so‘zlar ishlatish, kamsitish, tahqirlash, jabr-zulm qilish, erkakning spirtli ichimlikka ruju qo‘yganligi, rashk, xiyonat, ishsizlik, farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik, er-xotin munosabatlariga qaynona-qaynota, aka-uka, ayniqsa opa-singil va boshqa qarindoshlarning noo‘rin aralashuvi, oiladagi nosog‘lom muhit va boshqa qator sabab oilada jinoyat va huquqbuzarlikni keltirib chiqarmoqda.

XULOSA

Oila-turmush sharoitida jinoyat sodir etayotgan shaxslarda o‘ziga ishonmaslik, jahli tez chiquvchi va tez xulosa qiluvchi, tajavozkorlikka moyillik, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yetarli emasligi, huququy bilim saviyasining pastligi, kichik guruhlardan uzoqlashgan (oila, maktab, ishchi jamoa va boshq.) kabi xususiyatlari namoyon bo‘lmoqda. Oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlar asosan, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro mehr-muhabbatning kamligi, bir-birini qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi, ota-onaning farzand tarbiyasida mas’uliyatsizligi, qo‘pollik, g‘ayriijtimoiy xulq-atvor kabi omillar oilada kriminogen vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. // Halq so‘zi. –T., 2017 yil. 16 iyun.
2. Qotillik jinoyatlarining har uchinchisi oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan. Senatning o‘n uchinchi yalpi majlisi o‘z ishini davom ettirmoqda. N.NASRIEV, O‘zA. https://uza.uz/uz/posts/qotillik-zhinoyatlarining-har-uchinchisi-oila-turmush-munosabatlari-doirasida-sodir-etilgan_248385
3. O‘zbekiston Respublikasi IIV JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining 2024 yil yakunlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar tahlili.